

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash tartibi

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o'rinlarda – MHT-2008) xalqaro standarti, BMT Statistika bo'limining “Barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xalqaro standart tarmoqlar tasnifi” va Yevrostatning metama'lumotlar tizimida belgilangan metodologik ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini hisoblashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

axborot iqtisodiyoti mamlakatda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini ifodalovchi yig'ma ko'rsatkichlar guruhi bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kontent, media va elektron tijorat sohasini o'z ichiga oladi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bu elektron vositalardan keng foydalangan holda axborotlarni shakllantirish, uzatish, qayta ishlash, vizual ravishda ko'paytirish hamda aloqa funksiyalarini bajarish bilan bog'liq soha bo'lib, o'z ichiga AKTni ishlab chiqarish, AKT savdosi va AKT xizmatlarini qamrab oladi;

kontent sektori bu internet saytlarida matnlar, audio va videofayllar, grafiklar hamda animatsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

ommaviy axborot vositalari sektori ommaviy axborot vositalari orqali insonlarni xabardor qilish, o'qitish, ko'ngil ochish bilan bog'liq soha bo'lib, nashrlar, axborot mahsulotlari, madaniy va ko'ngil ochar mahsulotlarni o'z ichiga oladi;

elektron tijorat axborot tizimlaridan keng foydalangan holda tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishga doir amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatini ifodalaydi;

milliy hisoblar tizimi (MHT) mamlakatning iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistika ko'rsatkichlari tizimini o'zida aks ettiradi;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oraliq iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

2. AKT, kontent sektori va ommaviy axborot vositalari sohasiga kiritiladigan iqtisodiy faoliyat turlarining ro'yxatini shakllantirishda BMT Statistika bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan "Barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xalqaro standart tarmoqlar tasnifi"da keltirilgan axborot iqtisodiyoti uchun muqobil faoliyat turlari to'plamidan foydalaniladi.

3. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi to'g'risidagi ko'rsatkichlar yillik davriylikda (hisobot davridan keyingi yilning iyun oyida) shakllantiriladi.

4. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi to'g'risidagi ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun axborot manbai bo'lib, yillik statistika hisobotlari ma'lumotlari, shuningdek, Respublika tovar, tovar-fond, tovar-xomashyo birjalari hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Elektron kooperatsiya portali markazi va boshqa manbalardan o'rnatilgan tartibda olingan ma'lumotlari xizmat qiladi.

II bob. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish

5. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat bo'yicha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi to'g'risidagi ko'rsatkichlar yirik korxonalar tomonidan taqdim etiladigan 1 xizmat "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar to'g'risida"gi, 12 korxona "Tashkilot faoliyati to'g'risida"gi, 1 korxona "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida"gi, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan taqdim etiladigan 1 KB "Mikrofirmalar va kichik korxonalar hisoboti", ulgurji, chakana savdo va ovqatlanish tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan 1 savdo "Tovarlar sotish va qoldiqlar to'g'risida"gi statistika hisoboti shakllari hamda AKT savdosi bilan shug'ullanuvchi va AKT xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma statistika kuzatuvlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi

o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

6. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat bo'yicha ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi to'g'risidagi ko'rsatkichlar AKT sektori, kontent sektori va ommaviy axborot vositalari hamda elektron tijoratga ajratgan holda shakllantiriladi.

7. AKT sektorining ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar "O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi" (IFUT-2) asosida shakllantiriladi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

IFUT-2 kodlari	Tarmoqlar nomlanishi
	AKT ishlab chiqarish
2610	Elektron qismlar va platalar (sxemalar) ishlab chiqarish
2620	Kompyuterlar va periferiya uskunalarini ishlab chiqarish
2630	Kommunikatsiya uskunalarini ishlab chiqarish
2640	Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish
2680	Axborot uzatishning magnit va optik tashuvchilarini ishlab chiqarish
	AKT savdosi
4651	Kompyuterlar, kompyuter periferik uskunalar va dasturiy ta'minot ulgurji savdosi
4652	Elektron va telekommunikatsion uskunalar va ularning ehtiyot qismlari ulgurji savdosi
	AKT xizmatlari
5820	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish
6110	Simli aloqa xizmatlarini ko'rsatish
6120	Simsiz aloqa xizmatlarini ko'rsatish
6130	Yo'ldosh vositasida aloqa xizmatlarini ko'rsatish
6190	Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish
6201	Kompyuterda dasturlashtirish sohasidagi faoliyat
6202	Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari
6203	Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat
6209	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari
6311	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar
6312	Web-portallar
9511	Kompyuterlar va periferiya uskunalarini ta'mirlash
9512	Kommunikatsiya uskunalarini ta'mirlash

8. Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari sohasida ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar "IFUT-2" asosida shakllantiriladi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

IFUT-2 kodlari	Tarmoqlar nomlanishi
	Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari (OAV)
581	Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish va nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari
5811	Kitoblar nashr qilish
5812	Ma'lumotnoma va ro'yxatlarni nashr qilish
5813	Gazetalar nashr qilish
5814	Ro'znoma va davriy nashrlarni nashr qilish
5819	Noshirlik faoliyatining boshqa turlari
591	Kino, videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish
5911	Kino, videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish
5912	Kino, videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich
5913	Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish
5914	Kinofilmlar namoyish qilish
592	Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat
60	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat, teleko'rsatuv va radioeshittirish
6010	Radioeshittirish
6020	Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat
639	Axborot xizmatlarining boshqa turlari
6391	Axborot agentliklari faoliyati
6399	Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat

9. Elektron tijorat sohasida ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar yuqorida keltirilgan hisobot shakllari va kuzatuv so'rovnomalarining elektron savdolar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarini umumlashtirish orqali hamda tovarlar va xizmatlar savdosiga ajratgan holda shakllantiriladi.

III bob. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish

10. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar yuqorida keltirilgan tarkibiy qismlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmidan oraliq iste'mol hajmini ayirish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = \sum_{i=1}^n (P_i - IC_i) \quad (1),$$

bu yerda,

Q – axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi;

$P_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi;

$IC_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha oraliq iste'mol hajmi;

n - iqtisodiy faoliyat turlari soni.

11. Oraliq iste'mol hajmi iqtisodiy faoliyat turining 2 xonali kodlari darajasida ishlab chiqarish hisobida mavjud oraliq iste'mol ulushini qo'llash orqali quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$IC_i = \frac{P_i \times k_j}{100 \%} \quad (2),$$

bu yerda,

$k_j - j$ -iqtisodiy faoliyat turining 2 xonali kodlari darajasida ishlab chiqarish hisobining yillik yakunlari bo'yicha oraliq iste'mol ulushi.

12. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijoratning YAIMdagi ulushi axborot iqtisodiyoti va elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmini iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatiga bo'lib yuzga ko'paytirish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh = \sum_{i=1}^n \frac{Q_i}{GVA} \times 100 \% \quad (3),$$

bu yerda,

Sh – axborot iqtisodiyoti va elektron tijoratning YAIMdagi ulushi, % da;

$Q_i - i$ -iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi;

GVA – iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi.

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijoratning YAIMdagi ulushini hisoblash bo'yicha jadvallar ilovada keltirilgan.

IV bob. Yakuniy qoidalar

13. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasining YAIMdagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar milliy hisoblar ko'rsatkichlarining aniqlik kiritilgan hisob-kitoblari asosida qayta hisoblanishi mumkin.

14. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Система национальных счетов – 2008. Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
2. European system of accounts – 2010, European Union, 2013 г.
3. «Общегосударственный классификатор видов экономической деятельности Республики Узбекистан (ред.2)». О'zDT 005:2011.
4. Международная стандартная отраслевая классификация всех видов экономической деятельности (МСОК), четвертый пересмотренный вариант, БМТ, Нью-Йорк, 2009 г., С. 319.

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi bo'yicha
yalpi qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash Tartibiga ilova

1-jadval. AKT sektori bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi va AKTning YAIMdagi ulushini hisoblash usuli

IFUT-2 kodlari		Yalpi ishlab chiqarish hajmi (P), mlrd.so'm	Oraliq iste'mol ulushi (k _j), %	Qo'shilgan qiymatni aniqlash formulasi	Yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (Q), mlrd.so'm	AKTning YAIMdagi ulushi formulasi	YAIM (YAQQ)ga nisbatan % da (Sh)
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati – jami	910 800,0	49,0	$Q = \sum_{i=1}^n P_i - \frac{P_i \times k_j}{100} \%$	464 854,5	$Sh = \sum_{i=1}^n \frac{Q_i}{GVA} \times 100 \%$	100,0
	<i>ulardan:</i>						
	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sektori	11 905,8	36,9		7 508,4		1,62
	<i>shu jumladan:</i>						
	AKT ishlab chiqarishi	825,0	65,6		283,7		0,06
2610	Elektron qismlar va platalar (sxemalar) ishlab chiqarish	46,0	65,3		16,0		0,00
2620	Kompyuterlar va periferiya uskunalari ishlab chiqarish	65,9	65,4		22,8		0,00
2630	Kommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarish	59,8	65,7		20,5		0,00
2640	Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish	653,4	65,7		224,4		0,05
2680	Axborot uzatishning magnit va optik tashuvchilari ishlab chiqarish	0,0	65,2		0,0		0,00
	AKT savdosi	500,0	40,2		299,0		0,06
4651	Kompyuterlar, kompyuter periferik uskunalari va dasturiy ta'minot ulgurji savdosi	156,0	40,4		93,0		0,02
4652	Elektron va telekommunikatsion uskunalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji savdosi	344,0	40,1		206,0		0,04
	AKT xizmatlari	10 580,8	34,5		6 925,7		1,49
5820	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish	236,7	33,6		157,3		0,03
6110	Simli aloqa xizmatlarini ko'rsatish	2569,6	34,5		1 683,0		0,36
6120	Simsiz aloqa xizmatlarini ko'rsatish	5 852,8	34,4		3 837,0		0,83
6130	Yo'ldosh vositasida aloqa xizmatlarini ko'rsatish	3,5	35,1		2,3		0,00
6190	Boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish	279,3	34,6		182,5		0,04
6201	Kompyuterda dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	359,4	31,7		245,4		0,05
6202, 6203	Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari va kompyuter uskunalari boshqarish bo'yicha faoliyat	173,1	31,6		118,4		0,03
6209	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	243,3	31,4		166,8		0,04
6311	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	255,8	29,3		180,9		0,04
6312	Web-portallar	15,9	20,9		12,6		0,00
9511	Kompyuterlar va periferiya uskunalari ta'mirlash	382,6	42,5		220,0		0,05
9512	Kommunikatsiya uskunalari ta'mirlash	208,6	42,6		119,7		0,03

2-jadval. Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash usuli

IFUT-2 kodlari		Yalpi ishlab chiqarish hajmi (P), mlrd.so'm	Oraliq iste'mol ulushi (k _i), %	Qo'shilgan qiymatni aniqlash formulasi	Yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (Q), mlrd.so'm	KSONing YAIMdagi ulushi formulasi	YAIM (YAQQ)ga nisbatan % da (Sh)
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati – jami	910 800,0	49,0	$Q = \sum_{i=1}^n P_i \times \frac{k_i}{100} \%$	464 854,5	$Sh = \sum_{i=1}^n \frac{Q_i}{GVA} \times 100 \%$	100,0
	<i>ulardan:</i>						
	Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	1 420,5	37,9		882,7		0,19
	<i>shu jumladan:</i>						
581	Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish va nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari	439,7	32,4		297,2		0,06
5811	Kitoblar nashr qilish	54,1	33,1		36,2		0,01
5812	Ma'lumotnoma va ro'yxatlar nashr qilish	0,2	33,1		0,1		0,00
5813	Gazetalar nashr qilish	187,5	33,1		125,5		0,03
5814	Ro'znoma va davriy nashrlarni nashr qilish	80,4	29,4		56,8		0,01
5819	Noshirlik faoliyatining boshqa turlari	117,5	33,1		78,6		0,02
591	Kino, videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish	167,3	58,9		68,7		0,01
5911	Kino, videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish	146,9	60,1		58,5		0,01
5912	Kino- videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich	5,6	50,1		2,8		0,001
5913	Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish	3,2	50,1		1,6		0,000
5914	Kinofilmlar namoyish qilish	11,6	50,1		5,8		0,001
592	Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat	12,3	50,1		6,1		0,001
60	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish	689,2	37,5		431,1		0,09
6010	Radioeshittirish	62,3	37,5		39,0		0,01
6020	Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat	626,8	37,5		392,1		0,08
639	Axborot xizmatlarining boshqa turlari	112,1	29,0		79,6		0,02
6391	Axborot agentliklari faoliyati	6,4	29,0		4,5		0,001
6399	Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat	105,7	29,0		75,1		0,02

3-jadval. Elektron tijorat bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash usuli

	Yalpi ishlab chiqarish hajmi (P), mlrd.so'm	Oraliq iste'mol ulushi (k _j), %	Qo'shilgan qiymatni aniqlash formulasi	Yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (Q), mlrd.so'm	Elektron tijoratning YAIMdagi ulushi formulasi	YAIM (YAQQ)ga nisbatan % da (Sh)
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati - jami	910 800,0	49,0	$Q = \sum_{i=1}^n P_i \times \frac{k_j}{100} \%$	464 854,5	$Sh = \sum_{i=1}^n \frac{Q_i}{GVA} \times 100 \%$	100,0
<i>ulardan:</i>						
Elektron tijorat	663,1	58,5		275,4		0,06
<i>shu jumladan:</i>						
Tovarlar	107,0	38,1		66,2		0,01
Xizmatlar	556,1	62,4		209,2		0,04

4-jadval. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat bo'yicha yig'ma ko'rsatkichlar

	Yalpi ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	Yalpi qo'shilgan qiymat hajmi, mlrd.so'm	YAIMga nisbatan % da
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohasi	13 989,3	8 666,5	1,86
<i>shu jumladan:</i>			
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektori	11 905,8	7 508,4	1,62
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	1 420,5	882,7	0,19
Elektron tijorat	663,1	275,4	0,06